

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOLPO'LOTOV RUSTAM O'KTAMOVICH

MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

UDK: 657.2

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Economics sciences**

Xolpo'lotov Rustam O'ktamovich

Moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirish..... 3

Холполотов Рустам Октамович

Совершенствование учета финансовых инструментов..... 27

Xolpulotov Rustam Uktamovich

Improving the accounting of financial instruments..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOLPO‘LOTOV RUSTAM O‘KTAMOVICH

MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/Iqt4185 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Kozimjonov Abrorbek iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Mamatkulov Murodjon Shukurovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

Bosishga ruxsat etildi: 2025-yil 31-oktabr.
Bichimi 60x84^{1/16} "Times New Roman"
garniturada raqamli bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 3,5. Adadi 100 nusxa. Бюджет № 185.

"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" davlat unitar
korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 100174, Toshkent sh., Talabalar ko'chasi, 96/1-uy.
Telefonlar: (+998) 97-705-90-35, (+998) 99-920-90-35

Avtoreferat “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” davlat unitar korxonasida tahrirdan o‘tkazilib, o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi matnlari o‘zaro muvofiqlashtirildi.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirish moliya bozorlarining shaffofligini ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va global iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida moliyaviy instrumentlarni aniq va izchil hisobga olish ularning haqiqiy qiymatini to‘g‘ri aks ettirish, risklarni baholash va kapital bozorlarida qiyoslash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, derivativlar, gibrid moliyaviy vositalar va ESGga yo‘naltirilgan investitsiya instrumentlarining hisobini takomillashtirish orqali moliyaviy hisobotlarda xavf va daromadlarning haqqoniy taqsimoti ta'minlanadi. Xalqaro tadqiqotlarda ham ta'kidlanganidek, “IFRS 9 standartini joriy etish moliyaviy instrumentlar hisobini ilgarigidan aniqroq qilish, kredit risklarini samarali baholash va bozor ishtirokchilari uchun ishonchli ma'lumot taqdim etishga xizmat qilmoqda”¹. Iqtisodiyotni neft va gaz mahsulotlarini bilan ta'minlashda neft va gaz sanoati korxonalarining ahamiyati katta. Neft va gaz sanoati korxonalarida neft va gaz mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish ko‘p investitsiya talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Bu esa neft va gaz sanoati korxonalarida zamonaviy korporativ boshqaruv usullaridan foydalanish, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zaruratining dolzarbligini yanada oshiradi.

Jahonda faoliyat yuritayotgan neft va gaz sanoat korxonalarining asosiy vazifalari neft va gaz mahsulotlarini geologik qidiruv ishlarini olib borish va ularni qazib olish ishlarini amalga oshirishdan iborat. Neft va gaz mahsulotlariga ehtiyoj bilan ta'minot o‘rtasidagi muvozanatni nazorat qilib turish har bir davlat iqtisodiyot xavfsizligi darajasida ham doimo dolzarb hisoblanadi. Shunday ekan, neft va gaz sanoati korxonalari faoliyati doirasida ilmiy tadqiqot ishlari keng ko‘lamli ravishda olib borilmoqda. Neft va gazni qazib olish va taqsimlash bilan bog‘liq tizimi juda murakkab jarayon va bu jarayon katta kapital talab qilinishini inobatga oladigan bo‘lsak, neft va gaz sanoati korxonalarida moliyaviy instrumentlarning jozibadorligini oshirish va hisobini yuritishda yangi mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda neft va gaz sanoati korxonalariga kapital jalb qilishda moliyaviy instrumentlarning jozibadorligini oshirish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash bo‘yicha alohida e’tibor qaratish belgilangan. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida”² alohida hukumatimiz rahbari tomonidan qarorlari bilan ham belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “moliya bozoriga xorijiy kapital

¹ Barth, M.E., & Landsman, W.R., How Did Financial Reporting Contribute to the Financial Crisis?, European Accounting Review, 19(3), 2010. DOI: <https://doi.org/10.1080/09638180.2010.498619>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020-yildagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2020-y., 07/20/4611/0209-son.

oqimlarini asosan o'rta va uzoq muddatga jalb qilish, davlat qimmatli qog'ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish"³ kabi vazifalarning belgilangan. Shu bois, neft va gaz sanoati korxonalarda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy instrumentlarning hisobini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2012-yil 19-martdagi PQ-1727-son "Fond bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, moliyaviy instrumentlarni hisobi faoliyatiga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlaridagi moliyaviy instrumentlarni hisobining nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish doimo iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, mazkur muammoning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish masalalariga xorijlik olimlardan N.Ekvall, L.S.Yekini, Y.A.Astaxova, B.E.Milova, Y.A.Tatarko, V.Sklyarov, V.V.Kovalev, A.B.Feldma, N.N.Klinov, A.P.Juravlev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan⁴.

Hozirgi kunda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan aktiv, majburiyat va

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ LIST OF PUBLISHED WORKS

I bo'lim (I chast, part I)

1. Xolpo'lotov R.O'. Organizing financial instrument accounting in economic entities in accordance with international standards // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers (FARS PUBLISHERS). 2024 yil 7-soni. 185-198 betlar.
2. Xolpo'lotov R.O'. Improvement of accounting of financial obligations based on international standards // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 2024 yil 7-soni.
3. Xolpo'lotov R.O'. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy instrumentlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish tartibi. // «Iqtisodiyot va ta'lim» jurnali. 2024 yil 1-soni. ISSN-2010-6130. 192-201 betlar.
4. Xolpo'lotov R.O'. Moliyaviy instrumentlar hisobini yoritib berishni xalqaro standartlarga asosan takomillashtirish. // «Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil» ilmiy elektron jurnali. 2024 yil 2-soni. ISSN-2992-877X. 672-681 betlar
5. Xolpo'lotov R.O'. Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlarni hisobotlarda aks ettirishni takomillashtirish. // «Iqtisodiyot va ta'lim» jurnali. 2024 yil 2-soni. 206-2015 betlar.
6. Xolpo'lotov R.O'. Moliyaviy majburiyatlar hisobini xalqaro standartlarga asosan takomillashtirish. // «Agroiqtisodiyot» jurnali. 2024 yil 1-soni. 49-52 betlar
7. Xolpo'lotov R.O'. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida moliyaviy aktivlar hisobini takomillashtirish // Moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlar asosida o'tkazishning nazariy, tashkiliy va metodologik masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil 15 noyabr. 71-74 betlar
8. Xolpo'lotov R.O'. Xalqaro standartlar asosida shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezerv tashkil etishni takomillashtirish // Moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlar asosida o'tkazishning nazariy, tashkiliy va metodologik masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil 15 noyabr. 219-222 betlar

II bo'lim (II chast, part II)

9. Xolpo'lotov R.O'. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobini tashkil qilishning o'ziga xos jihatlari. // «Aktual moliya va buxgalteriya hisobi» ilmiy elektron jurnali. 2023 yil 3-soni. ISSN-2181-1865. 37-43 betlar
10. Xolpo'lotov R.O'. Moliyaviy instrumentlar hisobini xalqaro standartlar asosida hisobga olishning tashkiliy asoslari. // 2024 yil 1-soni. 147-161 betlar
11. Xolpo'lotov R.O'. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezerv tashkil etishni takomillashtirish. // 2024 yil 2-soni.
12. Xolpo'lotov R.O'. Moliyaviy majburiyatlar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish // «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida hisob-tahlil va audit tizimini rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2023 yil 5 dekabr 453-455 betlar
13. Xolpo'lotov R.O'. Shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezerv tashkil etishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida takomillashtirish // «Fan va iqtisodiyotning o'zaro hamkorligi – modernizatsion va innovatsion rivojlanish asosi» mavzusida xalqaro ilmiy amaliy anjuman to'plami. 2024 yil 15 dekabr 219-222 betlar

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.

⁴ Ekvall, Niklas. "Studies in complex financial instruments and their valuation." Doctoral thesis, Stockholm : Economic Research Institute, Stockholm School of Economics [Ekonomiska forskningsinstitutet vid Handelshögsk.] (EFI), 1993. <http://www.hhs.se/efi/summary/358.htm>. // Yekini, Liafisa Sina. "Financial instruments disclosure : the role of accounting standards." Thesis, University of Leicester, 2011. <http://hdl.handle.net/2381/9906>. // Ю.А.Астахова «Современные подходы к учету финансовых инструментов» тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2013г. <https://www.dissercat.com/content/sovremennye-podkhody-k-uchetu-finansovykh-instrumentov>. // В.Е.Милова «Учет финансовых инструментов» тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2008г. <https://www.dissercat.com/content/uchet-finansovykh-instrumentov>. // Е.А.Татарко «Организация бухгалтерского учета финансовых инструментов на предприятии» тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2010г. <https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-bukhgalterskogo-ucheta-finansovykh-instrumentov-na-predpriyatii>. // М.В.Скляров « Организация бухгалтерского учета финансовых инструментов в соответствии с российскими и международными стандартами» тема диссертации автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 2005г. <https://www.dissercat.com/content/organizatsiya-bukhgalterskogo-ucheta-finansovykh-instrumentov-v-sootvetstvii-s-rossiiskimi>. // В.В.Ковалев «Финансовый анализ: Управление капиталом. Выбор инвестиций. Анализ отчетности» - М.: Финансы и статистика, 1995. // А.Б.Фельдман Производные финансовые и товарные инструменты. - М.: 2003. // Н.Н.Клинов «Бухгалтерский учет и отчетность по финансовым инструментам» тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 1999г. <https://www.dissercat.com/content/bukhgalterskii-uchet-i-otchetnost-po-finansovym-instrumentam-0>. // А.П.Журавлев «Бухгалтерский учет производных финансовых инструментов» тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.12. 1999г. <https://www.dissercat.com/content/bukhgalterskii-uchet-proizvodnykh-finansovykh-instrumentov>.

Approbation of the research results. The results of this research were discussed and positively evaluated at 2 international and 2 national scientific and practical conferences.

Publication of the research results. A total of 12 scientific works have been published on the topic of the dissertation, including 8 in journals recognized by the national Academy of Sciences, 2 scientific articles in prestigious international journals, as well as 4 reports and theses at scientific and practical conferences.

Structure and volume of the dissertation. The dissertation consists of an introduction, three chapters, a conclusion, a list of references, and an appendix. The dissertation is 140 pages long.

xususiy kapital hisobini tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy ishlar olib bormoqdalar. Moliyaviy instrumentlarni bo'yicha amaliyoti, uning buxgalteriya hisobida yuritish tartibi amaliy jihatlarini takomillashtirish o'zbekistonlik olimlardan B.A.Xasanov, R.D.Dusmuratov, A.K.Ibragimov, A.A.Karimov, I.N.Qo'ziyev, R.O.Xolbekov, K.B.Urazov, N.B.Abdusalomova, I.K.Ochilov, Sh.T.Ergasheva, B.Y.Maxsudov D.E.Norbekov, M.SH.Mamatkulov, S.N.Tashnazarov, S.K.Maxmudov, D.M.Mavlyanova, A.Kozimjonov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁵.

Bu iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida moliyaviy instrumentlarni hisobi o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor xo'jalik yurituvchi subyektlarda, xususan, neft va gaz sanoat korxonalarida moliyaviy instrumentlarni hisobini yuritish masalalari alohida obyekt sifatida o'rganilmagan.

Bugungi kunda neft va gaz korxonalarida moliyaviy instrumentlar hisobini tashkil qilish uslubiyoti ishlab chiqilmaganligi, tarmoqning rivojlanishida moliyaviy instrumentlar tizimli tadqiq qilish bo'yicha yondashuvlarning amalda mavjud emasligi, xususan, moliyaviy instrumentlar hisobini yuritish yuzasidan mavjud muammoning ba'zi jihatlariga buxgalteriya hisobining xalqaro tajribalariga asoslangan holda hal etish bilan bog'liq masalalar bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada emasligi mazkur mavzuda ilmiy ish olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6-son "O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotini konseptual yo'nalishi" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi neft va gaz sanoati korxonalarida moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

moliyaviy instrumentlarning nazariy va uslubiy asoslarini ilmiy asoslash;
moliyaviy instrumentlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslarini aniqlash;

⁵ Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Yangi nashr, 2011.; // Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: Monografiya. – Toshkent: "Moliya", 2007. – 276 b. // Ibragimov A.K., Marpatov M.D., Rizaev N.Q. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. T.:Moliya, 2010. – 272b. // Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Dis....iqt.fan.d-ri. BMA. – T., 2009. // Qo'ziyev I.N. Auditorlik hisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish nazariyasi va metodologik masalalar.: monografiya – Toshkent: Iktisod-moliya, 2015. – 200 6. – ISBN 978-9943-13-598-7 // Xolbekov R.O. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti. Dis....iqt.fan.d-ri. – T.,2006.; // Urazov K.B. Moliyaviy hisobot:milliy va xalqaro standartlar muvofiqligi yo'lida. //Bozor, pul va kredit. T.:4/2013. // Abdusalomova N.B. Qora metallurgiya sanoat korxonalarida xarajatlarni boshqarish va buxgalteriya hisobini takomillashtirish. Iqt.fan.fal.d-ri (PhD). diss..avtoref. – T., 2017.; // Norbekov D.E., Ochilov I.K. "MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI" fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma; -T, 2019 // Ergasheva Sh.T. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник. –T.: "Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи" 2021. // Maxsudov B.Y. Boshqaruv hisobi: nazariy va uslubiy asoslar.: monografiya - Toshkent : Iqtisodiyot, 2013. // Norbekov D.E., Ochilov I.K. "MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI" fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma; – T, 2019. // Mamatkulov M.SH. "Buxgalteriya hisobi" o'quv amaliyoti uchun o'quv qo'llanma, – Toshkent, 2022. // Tashnazarov S.N., Tashnazarova D.S. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – Samarqand: SamISI, 2018. – 421 b. // Maxmudov S.K. Moliyaviy instrumentlarning hisobi va auditini takomillashtirish. Dis....iqt.fan.d-ri. – T.,2023.; // D.M.Mavlyanova "Joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditini uslubiy jihatlarini takomillashtirish" nomli dissertatsiyasi. -T, 2020. // A.Kozimjonov "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda qarz majburiyatlarini bo'yicha xarajatlar hisobini takomillashtirish" nomli dissertatsiyasi. – T, 2022.

neft va gaz sanoati korxonalarda moliyaviy instrumentlar hisobining amaldagi holatini tadqiq qilish va ularga doir munosabatlarni takomillashtirish;

moliyaviy instrumentlar hisobining analitik va sintetik hisobini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

moliyaviy instrumentlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

neft va gaz sanoati korxonalarda moliyaviy instrumentlar haqidagi axborotlarni moliyaviy hisobot izohlarda yoritib berish tartibini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zbekneftgaz" AJning moliyaviy xo'jalik faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini neft va gaz sanoati korxonalarda moliyaviy instrumentlar hisobini yuritishda yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida guruhlash, taqqoslama tahlil, diskontlash, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil, ikkiyoqlama yozuv, schyotlar tizimi, buxgalteriya balansi, hisobot usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy instrument" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bir vaqtning o'zida bir korxona uchun moliyaviy aktiv, ikkinchi korxona uchun esa moliyaviy majburiyat yoki ulushli instrument sifatida hisobga olinadigan, kapital harakati va resurslarni taqsimlashni ta'minlovchi hamda risk va likvidlikni samarali boshqarish imkonini yaratadigan huquqiy-iqtisodiy vosita nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

ayirboshlanadigan obligatsiyalar hisobi bo'yicha ulushli kapitalni hisobga olishda 8200 – "Kapitalning boshqa elementi" nomli sintetik schyotini ochish hamda uning tarkibida 8210 – "Ayirboshlanadigan obligatsiyalar bo'yicha ulushli kapital" nomli analitik ishchi schyotini kiritish orqali neft va gaz sanoati korxonalarida ayirboshlanadigan obligatsiyalar hisobini takomillashtirish asoslangan;

sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarni muddatlar bo'yicha ajratish, guruhdan guruhga o'tish foizini, shubhali debitorlik qarzlarni ehtimollik darajasini, shubhali debitor qarzdorligi zaxira qiymatini aniqlash va axborotlarni yoritib berish ketma-ketligi orqali shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni hisoblashning samaradorligini oshirish asoslangan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning BHXS (IAS) 1 – "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" va MHXS (IFRS) 7 – "Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni yoritib berish" standartlari talablari doirasida moliyaviy hisobotga ilova sifatida moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarning toifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun axborotning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlash asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

neft va gaz sanoati korxonalarining hisob siyosatini shakllantirish xususiyatlarini ko'rib chiqish orqali moliyaviy instrumentlarning roli va ahamiyati asoslangan;

Theoretical and methodological developments on improving the economic content of the concept of "financial instrument" in accordance with the methodological approach from the point of view of a legal and economic instrument that is simultaneously considered a financial asset for one enterprise and a financial liability or equity instrument for another enterprise, ensuring capital movements and resource allocation, and allowing for effective risk and liquidity management were used in the preparation of a textbook for students of higher educational institutions entitled "International Financial Reporting Standards" (Order of the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan dated March 29, 2023 No. 95). As a result of the implementation of this proposal in practice, it was possible to deepen theoretical knowledge on the concept of a financial instrument, which is considered a financial asset for one business entity and a financial liability or equity instrument for another business entity;

A proposal to improve the accounting of convertible bonds at oil and gas industry enterprises by opening a synthetic account 8200 - "Other elements of capital" when accounting for share capital on convertible bonds and including an analytical working account 8210 - "Share capital on convertible bonds" in its structure was put into practice at Uzbekneftegaz JSC (Reference No. 08-36-2-514 of Uzbekneftegaz JSC dated November 29, 2024). As a result of the implementation of this proposal, accuracy and transparency were achieved in accounting for the difference between the nominal value and the discount value of convertible bonds issued by the company;

The proposal to increase the efficiency of calculating the reserve for doubtful receivables by separating sales receivables by maturity, determining the percentage of transfer from group to group, the probability level of doubtful receivables, the value of the reserve for doubtful receivables, and the sequence of information disclosure was put into practice at Uzbekneftegaz JSC (Reference No. 08-36-2-514 of Uzbekneftegaz JSC dated November 29, 2024). As a result of the implementation of this proposal, the company achieved accuracy in calculating the reserve for doubtful receivables by using the proposed 5-stage sequence when creating a reserve for doubtful receivables. In the IFRS report, the reserve for receivables amounted to 58% of net profit at the end of 2022, and a reserve reduction of 82.7% of net profit was achieved for 2023;

The proposal to ensure the reliability and transparency of information for users of financial statements by including information on categories of financial assets and financial liabilities as an appendix to the financial statements of business entities within the framework of the requirements of IAS 1 - "Presentation of Financial Statements" and IFRS 7 - "Financial Instruments: Disclosures" has been put into practice at Uzbekneftegaz JSC (Reference of Uzbekneftegaz JSC dated November 29, 2024 No. 08-36-2-514). As a result of the implementation of this proposal, the reliability and transparency of information for users of financial statements has been achieved as a result of the company using the recommended format for presenting information on financial assets and financial liabilities based on the requirements of IAS 1 - "Presentation of Financial Statements" and IFRS 7 - "Financial Instruments: Disclosures".

to the financial statements within the framework of the requirements of IAS 1 - "Presentation of Financial Statements" and IFRS 7 - "Financial Instruments: Disclosures".

The practical results of the research are as follows:

The role and importance of financial instruments is based on the consideration of the features of the formation of accounting policies of oil and gas industry enterprises;

The role and importance of information on the category of financial instruments of business entities is based on;

It was determined that the initial recognition and subsequent accounting of financial instruments should use the methods of fair value through profit or loss, fair value through other comprehensive income or amortized cost, and the choice of which of these methods should be consistent with the expected results and objectives of the organization from financial instruments;

Correspondence of accounts on the account "Share capital on convertible bonds" was recommended to introduce the difference between the nominal value and the discount value of convertible bonds issued by joint-stock companies into the practice of accounting for financial reporting;

The expediency of organizing accounting by dividing the regulatory and legal framework for accounting for financial instruments into laws, codes, resolutions, orders, decrees, codes, international and national accounting standards was clarified;

In accordance with international financial reporting standards, it served to ensure the fair formation of the cost of financial instruments in enterprises of the oil and gas industry and their correct reflection in accounting and reports.

The reliability of the research results. The reliability of the research results is explained by the appropriateness of the approaches and methods used in the work, the fact that the database was obtained from official sources, including the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan, the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan and Uzbekneftegaz JSC, the fact that the research is based on regulatory and legal documents and analytical data, as well as the implementation of conclusions and proposals into practice, and the approval of the results obtained by authorized bodies.

Scientific and practical significance of the research results. The scientific significance of the research results is explained by the fact that the theoretical approaches, scientific proposals and practical recommendations obtained and put forward as a result of the research work can be used in scientific research aimed at improving accounting at oil and gas industry enterprises.

The practical significance of the research is that the scientific proposals and practical recommendations developed in the research work serve to develop a set of measures for the effective management of economic processes related to accounting for financial instruments at oil and gas industry enterprises.

Implementation of the research results. Based on the developed scientific proposals and practical recommendations on improving the accounting of financial instruments in business entities:

xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy instrumentlarning toifasi to'g'risidagi ma'lumotlarning roli va ahamiyati asoslangan;

moliyaviy instrumentlarni dastlab tan olishi va uning keyingi hisobini yuritishda foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymat, boshqa umumlashgan daromad orqali haqqoniy qiymat yoki amortizatsiyalangan qiymat usullaridan foydalanish zarur va bu usullarda qaysi birini tanlash tashkilotni moliyaviy instrumentlardan kutilayotgan natijaga va maqsadga muvofiq bo'lishi lozimligi aniqlangan;

aksiyadorlik jamiyatlarini tomonidan chiqariladigan ayirboshlanadigan obligatsiyalarni nominal qiymati va diskont qiymati o'rtasidagi farqni moliyaviy hisobotga olish amaliyotiga joriy etish uchun "Ayirboshlanadigan obligatsiyalar bo'yicha ulushli kapitali" hisobvarag'i bo'yicha hisobvaraqlarning yozishmalari tavsiya etilgan;

moliyaviy instrumentlarning hisobining me'yoriy-huquqiy bazasini qonunlar, kodekslar, qarorlar, buyruqlar, farmonlar, kodekslar, xalqaro va milliy buxgalteriya standartlarga ajratgan holda hisobini tashkil etish maqsadga muvofiqligi aniqlashtirilgan;

neft va gaz sanoati korxonalarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, moliyaviy instrumentlarni tannarxini haqqoniy shakllantirishga va buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarida to'g'ri aks ettirishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va "O'zbekneftgaz" AJning rasmiy manbalaridan olinganligi, tadqiqotlar me'yoriy-huquqiy hujjatlar va tahliliy ma'lumotlarga asoslanganligi, shuningdek, xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishi natijasida olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan neft va gaz sanoati korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar neft va gaz sanoati korxonalarida moliyaviy instrumentlar hisobi bilan bog'liq xo'jalik jarayonlarini samarali boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy instrumentlar hisobini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy instrument" tushunchasining iqtisodiy mazmunini bir vaqtning o'zida bir korxona uchun moliyaviy aktiv, ikkinchi korxona uchun esa moliyaviy majburiyat yoki ulushli instrument sifatida hisobga olinadigan, kapital harakati va resurslarni taqsimlashni ta'minlovchi hamda risk va likvidlikni samarali boshqarish imkonini yaratadigan huquqiy-iqtisodiy vosita nuqtai nazaridan

takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 29-martdagi 95-sonli buyrug'i). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilish natijasida bir xo'jalik yurituvchi subyekt uchun moliyaviy aktiv sifatida hisobga olinadigan, ikkinchi xo'jalik yurituvchi subyekt uchun esa moliyaviy majburiyat yoki ulushli instrument sifatida hisobga olinadigan aktiv yoki majburiyat nuqtai nazaridan takomillashtirish taklifi "O'zbekneftgaz" AJda amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekneftgaz" AJning 2024-yil 29-noyabrdagi 08-36-2-514-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilish natijasida jamiyat tomonidan chiqariladigan ayirboshlanadigan obligatsiyalarni nominal qiymati va diskont qiymati o'rtasidagi farqni hisobga olishda aniqlik va shaffoflikka erishilgan;

ayirboshlanadigan obligatsiyalar hisobi bo'yicha ulushli kapitalni hisobga olishda 8200 – "Kapitalning boshqa elementi" nomli sintetik schyotini ochish hamda uning tarkibida 8210 – "Ayirboshlanadigan obligatsiyalar bo'yicha ulushli kapital" nomli analitik ishchi schyotini kiritish orqali neft va gaz sanoati korxonalarida ayirboshlanadigan obligatsiyalar hisobini takomillashtirish taklifi "O'zbekneftgaz" AJda amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekneftgaz" AJning 2024-yil 29-noyabrdagi 08-36-2-514-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilish natijasida jamiyat tomonidan chiqariladigan ayirboshlanadigan obligatsiyalarni nominal qiymati va diskont qiymati o'rtasidagi farqni hisobga olishda aniqlik va shaffoflikka erishilgan;

sotuv bo'yicha debitor qarzdorliklarni muddatlar bo'yicha ajratish, guruhdan guruhga o'tish foizini, shubhali debitorlik qarzlari ehtimollik darajasini, shubhali debitor qarzdorligi zaxira qiymatini aniqlash va axborotlarni yoritib berish ketma-ketligi orqali shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni hisoblashning samaradorligini oshirish taklifi "O'zbekneftgaz" AJda amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekneftgaz" AJning 2024-yil 29-noyabrdagi 08-36-2-514-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilish natijasida jamiyatning shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni yaratishda taklif qilingan 5 bosqichli ketma-ketlikdan foydalanish natijasida shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezervni hisoblashda aniqlikka erishgan. MHXS bo'yicha hisobotida debitorlik qarzlari bo'yicha rezerv 2022-yil yakuni bo'yicha sof foydaning 58% ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yil uchun sof foydaning 82,7% miqdoridagi rezerv kamaytirilishiga erishilgan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning BHXS (IAS) 1 – "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" va MHXS (IFRS) 7 – "Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni yoritib berish" standartlari talablari doirasida moliyaviy hisobotiga ilova sifatida moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarning toifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun axborotning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlash taklifi "O'zbekneftgaz" AJda amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekneftgaz" AJning 2024-yil 29-noyabrdagi 08-36-2-514-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilish natijasida jamiyat tomonidan moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarning to'g'risidagi ma'lumotlarni BHXS (IAS) 1 – "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" va MHXS (IFRS) 7 – "Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni yoritib berish" talablari asosida tavsiya qilingan shakldan foydalanish natijasida moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun axborotning ishonchliligi va shaffofligiga erishilgan.

INTRODUCTION (abstract of the thesis of the Philosophy Doctor (PhD) on Economics Sciences)

The purpose of the research. to develop proposals and recommendations for improving the accounting of financial instruments at oil and gas industry enterprise

Objectives of the research:

scientific substantiation of the theoretical and methodological foundations of financial instruments;

determination of the regulatory and legal framework for accounting for financial instruments;

study of the current state of accounting for financial instruments at oil and gas industry enterprises and improvement of relations with them;

development of recommendations for improving analytical and synthetic accounting for financial instruments;

development of proposals and recommendations for improving accounting for financial instruments based on international financial reporting standards;

improvement of the procedure for disclosing information about financial instruments in the notes to financial statements at oil and gas industry enterprises.

The object of the research is the financial and economic activities of Uzbekneftegaz JSC have been obtained.

The subject of the research is the economic relationships that arise when accounting for financial instruments at enterprises in the oil and gas industry.

Research methods. The dissertation work widely used grouping, comparative analysis, discounting, induction, deduction, comparative comparison, theoretical and practical study, statistical analysis, double-entry bookkeeping, accounting system, balance sheet, and reporting methods.

Scientific novelty of the research is as follows:

According to the methodological approach, the economic content of the concept of "financial instrument" is improved from the point of view of a legal and economic instrument that is simultaneously considered a financial asset for one enterprise and a financial liability or equity instrument for another enterprise, ensuring the movement of capital and the allocation of resources, and allowing for effective risk and liquidity management;

Improving the accounting of convertible bonds at oil and gas industry enterprises is based on the opening of a synthetic account called 8200 - "Other element of capital" when accounting for share capital on convertible bonds and the inclusion of an analytical working account called 8210 - "Share capital on convertible bonds" in its structure;

It is based on increasing the efficiency of calculating the reserve for doubtful receivables by separating sales receivables by maturity, determining the percentage of transfer from group to group, the probability of doubtful receivables, the value of the reserve for doubtful receivables, and the sequence of information disclosure;

The purpose of the financial statements is to ensure the reliability and transparency of information for users of financial statements by including information on categories of financial assets and financial liabilities as an appendix

The topic of doctor dissertation (Doctor of Philosophy) was registered under the number B2024.2.PhD/Iqt4185 at the Supreme Attestation Commission.

The dissertation has been accomplished at the Tashkent State University of Economics.

The abstract of dissertation is posted in three languages (Uzbek Russian and English (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tsue.uz) and on the website of “Ziynet” informational and educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific advisor: **Kozimjonov Abrorbek**
Doctor of Philosophy in Economics, Associate Professor

Official opponents: **Khadzhimuratov Nizomjon Shukurullayevich**
Doctor of Economics, Professor

Mamatkulov Murodjon Shukurovich
Doctor of Economics, Professor

Leading organization: **Tashkent State Agrarian University**

The defense of the dissertation will take place on _____ “_____” at the meeting of Scientific council DSc.03/10.12.2019.I.16.01 at Tashkent State University of Economics of the Republic of Uzbekistan. Address: 100066, Tashkent city, I.Karimov street, building 49, phone: (99871) 239-28-72; fax: (99871) 239-43-51, E-mail: tsue_info@tsue.uz.

The doctoral dissertation (PhD) can be reviewed at the Information Resource Center of Tashkent State University of Economics (registered under the number _____). Address: 100066, Tashkent city, I. Karimov street, building 49, phone: (99871) 239-28-72, fax: (99871) 239-43-51, E-mail: tsue_info@tsue.uz.

The abstract of dissertation sent out on “_____” _____ 2025.

(mailing report № _____ on “_____” _____ 2025).

S.U. Mekhmonov

Chairman of the Scientific council
for awarding scientific degrees,
Doctor of Economics, Professor

U.V. Gafurov

Scientific secretary of the Scientific
council for awarding scientific
degrees, Doctor of Economics,
Professor

S.K. Khudoykulov

Chairman of the scientific seminar
under the Scientific council for
awarding scientific degrees
Doctor of Economics, professor

Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e'tirof etgan jumallarda 8 ta, xalqaro nufuzli jumallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma'ruza va tezislarni nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zarurligi asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekt hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar talab darajasida keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Neft va gaz sanoati korxonalarida moliyaviy instrumentlar hisobini tashkil qilishning konseptual asoslari”** deb nomlanib, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy sohasida neft va gaz sanoati korxonalarining tutgan o'rni va ularda buxgalteriya hisobini tashkil etish xususiyati, moliyaviy instrumentlarning nazariy-uslubiy asoslari va moliyaviy instrument hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari yoritilgan.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” nomli 2 yo'nalishining 22-maqsadida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoati ulushini oshirishga qaratilgan sanoati siyosatini davom ettirib, sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”⁶ vazifasi belgilangan. Shuningdek, sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash, energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft va gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash belgilangan.

Shunday ekan, yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda neft va gaz sanoati korxonalar faoliyatini har tomonlama tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizdagi neft va gaz sanoati korxonalarini zamonaviy jahon standartlariga javob beradigan darajada shakllantirish, neft va gaz mahsulotlarining geologiya qidiruv

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli farmoni, manba: <https://lex.uz/docs/5841063>

ishlari amalga oshirish, aholini neft va gaz mahsulotlarining bilan to'liq ta'minlash, neft va gaz sanoati korxonalarini xodimlarini ilmiy salohiyatini oshirish, neft va gaz mahsulotlarining narxlarini shakllantirish ishlarining samaradorligini oshirish bilan neft va gaz tarmog'i korxonalari moliyaviy holatining yaxshilash, mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish va shu qatorda moliyaviy jarayonlarni amalga oshirishda samarali qarorlarini qabul qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida neft qazib chiqarish hajmi⁷

Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida neft qazib chiqarish hajmi 2023-yil 778,3 ming tonnani tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 11,4 foizli o'sish suratiga erishilgan. Bu iqtisodiy islohotlarni, ya'ni neft va gaz mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, moliyaviy ahvolini yanada yaxshilash uchun neft va gaz korxonalarida modernizatsiya va texnik qayta jihozlash ishlarini amalga oshirish lozim. Modernizatsiyalash ishlari uchun katta miqdorda mablag' talab etadi. Bu mablag'larni xorijiy va mahalliy investorlarni yoki qarz mablag'larini jalb etish orqali amalga oshirish mumkin.

So'ngi yillarda innovatsiya dasturlarining kapital sig'implari tobora o'sib borishi korxonalar, davlat va moliyaviy institutlar tomonidan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya ehtiyojlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash yo'llarini izlash zaruriyati vujudga kelmoqda. Bunday sharoitda muhim va dolzarb masala moliyaviy instrumentlarni tan olinishi, uni buxgalteriya hisobida yuritish jarayonida uning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish zarur vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan neft va gaz sanoati korxonalarda moliyaviy instrumentlar hisobini tashkil etish ham muhim o'rin egallaydi.

Neft va gaz sanoati korxonalarda moliyaviy instrumentlar vujudga kelishining o'ziga xos jihatlar va moliyaviy instrument hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari o'rganar ekanmiz avvalambor moliyaviy instrumentlarni tushunchasi bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar fikrlarini chuqur tahlil qilish va ularni fikrlari natijasida deduktiv xulosa ko'plikning umumiy xossalarini bilish asosida, shu ko'plikning ba'zi elementlari haqidagi xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Xolpulotov Rustam Uktamovich

IMPROVING THE ACCOUNTING OF FINANCIAL INSTRUMENTS

08.00.08 – Accounting, economic analysis and audit

ABSTRACT
of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD on Economics)

Tashkent city – 2025 year

⁷ stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

“Moliyaviy instrument” ta’rifi bo’yicha olimlarning turli fikrlari⁸

A.K.Ibragimov	“Moliyaviy instrumentlar – bu korxonaning qimmatli qog’ozlarni sotib olish uchun qilgan xarajatlari (pul mablag’larini qo’shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, shirkatlarning asosiy vositalari, nomoddiy va boshqa aktivlariga qo’shish), boshqa korxonalarga qarz berish tarzida berilgan debitor qarzlardir” ⁹ .
I.K.Ochilov D.E.Norbekov	“Moliyaviy instrumentlarni olish, yetkazib berish yoki ayirboshlash bo’yicha shartnomaviy huquq yoki shartnomaviy majburiyatning o’zi moliyaviy instrumentdir” ¹⁰ .
A.Kozimjonov	“Moliyaviy instrument – bu pul mablag’lari boshqa korxona kapitaliga qo’yilgan investitsiyalar yoki boshqa korxonadan pul va boshqa qimmatli qog’ozlarni olish yoki to’lash majburiyatini olganligini ifodalovchi shartnomalar yig’indisidir” ¹¹ .
B.E.Milova	“Moliyaviy instrument bitim taraflari o’rtasida moliyaviy aktiv va moliyaviy majburiyat (kapital vosita) bir vaqtning o’zida paydo bo’lishiga olib keladigan shartnoma munosabatlari” ¹² .
Y.A.Astaxova	“Moliyaviy instrumentlar bu bitimning bir ishtirokchisi uchun moliyaviy aktivning paydo bo’lishiga olib keladigan moliyaviy risklar bilan birga keladigan mablag’lar va moliyaviy shartnomalarni birlashtirgan buxgalteriya toifasi va boshqasi uchun moliyaviy majburiyatlar yoki kapital vositasi” ¹³ .
